

О‘ЗBEK TILINING SOHADA QO‘LLANILISHI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Andijon davlat chet tillari instituti
Roman-german va slavyan tillar fakulteti
Fransuz tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Shokirova Hatifaxon Shuhratjon
qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining sohalarda qo‘llanilishi fanining mazmuni, maqsadi va asosiy vazifalari yoritiladi. Mazkur fan orqali tilning ilmiy, rasmiy, kasbiy va ijtimoiy sohalardagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, o‘zbek tilining zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, sohaviy til, nutq madaniyati, kasbiy til, rasmiy uslub, ilmiy uslub, kommunikatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание, цели и основные задачи дисциплины «Применение узбекского языка в различных сферах». Через данную дисциплину раскрывается значение узбекского языка в научной, официальной, профессиональной и социальной сферах. Также анализируется роль узбекского языка в современном обществе и перспективы его развития.

Ключевые слова: узбекский язык, специализированный язык, культура речи, профессиональный язык, официальный стиль, научный стиль, коммуникация.

Abstract: This article discusses the content, objectives, and main tasks of the subject “Application of the Uzbek language in various fields.” Through this subject, the importance of the Uzbek language in scientific, official, professional, and social spheres is revealed. The article also examines the role of the Uzbek language in modern society and its development prospects.

Keywords: Uzbek language, domain-specific language, speech culture, professional language, official style, scientific style, communication.

Til – jamiyat taraqqiyotining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.¹Har bir millat o‘z tilini rivojlantirish orqali ilm-fan, madaniyat va iqtisodiyotda yuksalishga erishadi.² O‘zbek tilining turli sohalarda qo‘llanilishi esa uning imkoniyatlarini kengaytiradi va jamiyatdagi rolini mustahkamlaydi. Shu sababli “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fani bugungi kunda muhim o‘rin tutadi. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanining asosiy maqsadi – talabalarni o‘zbek tilining turli ijtimoiy, kasbiy va ilmiy sohalarda to‘g‘ri, samarali va maqsadga muvofiq qo‘llashga o‘rgatishdan iborat.³ Bu maqsad quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi, o‘zbek tilining uslubiy imkoniyatlarini o‘rgatish, turli sohalarda nutq tuzish, ko‘nikmalarini shakllantirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, samarali muloqot qilishni o‘rgatish. Mazkur fan quyidagi muhim vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, talabalarga o‘zbek tilining uslublari, leksikasi va grammatik xususiyatlari haqida chuqur nazariy bilim berishdan iborat.⁴ Bu orqali ular tilning ichki qonuniyatlarini tushunib yetadilar. Ikkinchidan, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish vazifasi bajariladi. Talabalar turli rasmiy hujjatlar tuzish, ilmiy maqola yozish va og‘zaki nutqni rivojlantirishni o‘rganadilar.⁵ Uchinchidan, kasbiy nutqni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Har bir mutaxassis o‘z sohasiga oid termin va iboralarni to‘g‘ri qo‘llay olishi zarur. To‘rtinchidan, nutq madaniyatini oshirish vazifasi amalga oshiriladi. Bu adabiy til me‘yorlariga amal qilish, talaffuz va yozuvda aniqlikka erishishni ta‘minlaydi.⁶ Beshinchidan, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish orqali talabalar muloqot qilish, fikr almashish va bahs-munozarada qatnashish ko‘nikmalarini egallaydilar. Oltinchidan, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish ham ushbu fan vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, turli kasb egalari o‘z faoliyatida o‘zbek tilidan samarali foydalanish orqali o‘zaro muloqotni ta‘minlaydilar. Bu esa tilning universalligi va rivojlanayotganligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fani talabalarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan orqali ular nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki amaliy jihatdan ham o‘z fikrlarini aniq, ravon va madaniyatli ifodalashni o‘rganadilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tilni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash esa har bir insonning madaniy saviyasi va bilim darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Zamonaviy o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2020.
4. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent, 2018.
5. Hujjatshunoslik asoslari. – Toshkent, 2019.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.